

TOKARLIK DASTGOHI BIKRLIGINI TO‘G‘RI VA TESKARI SURISH USULI BILAN ANIQLASH.

Tursunov Shukurali Exsonovich

Toshkent davlat transport universiteti, Materialshunoslik va mashinasozlik kafedrasи

Muhammadjonov Javohir Tursunali o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti, Materialshunoslik va mashinasozlik kafedrasи

Annotatsiya Elastik tizim (dastgoh-moslama-asbob-detal) elementlariga kesish kuchi ta’sir etishi natijasida, shu texnologik tizimning deformasiyalanishi sodir bo‘ladi. Shu tizimni deformasiyalanishini chaqiruvchi kuch ta’siriga tizimni qarshilik ko’rsata olish qobiliyati, uning bikirligini tavsiflaydi. Ishlov berish aniqligiga ko’pincha tizimning shunday deformasiyasi ta’sir ko’rsatadiki, qaysiki, asbob kesuvchi qirrasi va ishlanuvchi yuza oralig’idagi masofani o‘zgartiradi, ya’ni ishlanuvchi yuzalarga normal yo‘naltirilgan deformasiyalar ta’sir etadi.

Tokarlik dastgohi bikrligini ishlab chiqarish usulida aniqlash – keskichni kesish chuqurligini o‘zgatirmasdan turib to‘g‘ri va teskari surish usuli bilan amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar tokarlik dastgohi, bikrlig, deformatsiyalash, tizim, texnologiya.

“Dastgoh-moslama-asbob-detal (DMAD)” texnologik tizimiga kiruvchi tokarlik dastgohining bikrligi (qattiqligi) yetarli bo‘lmasa, detallarga ishlov berishda yuqori aniqlikka va mehnat unumdoorligiga erishib bo‘lmaydi.

Shu sababli, oldindan sozlangan dastgohlarda ishlashda dastgoh bikrligining ishlov berish aniqligiga ta’sirini o‘rganish muhim sanaladi.

DMAD tizimiga ta’sir qiluvchi omillarning har xilligi va doimiy emasligi dastgoh bikrligini hisoblash-analitik usul bilan aniqlashni qiyinlashtiradi. Shu sababli dastgohning bikrligi tajriba (ishlab chiqarish) usulida aniqlanadi. Tokarlik dastgohi bikrligini ishlab chiqarish usulida – “to‘g‘ri va teskari surish” usulida aniqlash boshqa usullarga nisbatan oddiyligi bilan ishlab chiqarish sharoitlariga mos keladi.

Ushbu usul keskich bilan zagotovkani to‘g‘ri va teskari yo‘nalishda qirqishda zagotovka o‘lchamlarining farq qilishiga (DMAD tizimi elastik deformatsiyalarining farq qilishiga) asoslanadi. DMAD tizimidagi elastik deformatsiya natijasida to‘g‘ri yo‘nalishda qirqishda keskich ishlov berilayotgan yuzadan biroz ko’tariladi (sinqilishi bo‘shashadi). Bunda keskich va zagotovka katta bikrlikka ega bo‘lganligi sababli ularning deformatsiyalarini hisobga olinmaydi.

Keskichni teskari surish bilan ishlov berishda (to‘g‘ri surishdan keyin keskichni sozlanishini o‘zgartirmasdan) keskichga tushayotgan yuklanish deyarli olinadi va keskich orqaga qaytishda avval ishlov berilgan yuzadan qo‘srimcha metal qatlamni qirqib oladi.



DMAD tizimining qo'yilgan statik yuklanishga qarshilik ko'rsatish qobiliyati dastgohning (kg/mkm) yoki ushbu tizimning (kg/mm) bikrligini xarakterlaydi:

$$\gamma_{\text{dast}} = P_y / y_{\text{dast}},$$

bu yerda

P_y – qirqish kuchining normal tuzuvchisi (uning yo'nalishi saqlanayotgan o'lcham bilan mos tushadi);


y_{dast} – dastgoh uzellarini yoki tizim elementlarini qo'yilgan kuch ta'sirida siljishi (ko'tarilishi).

"Bikrlik" tushunchasiga teskari tushuncha beriluvchanlik (podatlivost) deyiladi, ya'ni: $\omega = 1/\gamma_{\text{dast}} = y_{\text{das}}/P_y$.

Mazkur amaliyotni bajarishimiz uchun tokarlik dastgohi – SAMAT, qirqib o'tuvchi keskich, oldingi burchagi $\gamma=0$ ga teng, plandagi burchagi $\phi=45^\circ$ va kesuvchi qirraning qiyalik burchagi $\lambda=0$; diametri 15-25 mm hamda uzunligi 230-300 mm bo'lgan 45 rusumli po'latdan tayyorlangan chiviq (armatura); o'lchash diapazoni 0-25 mmli va eng kichik bo'linmasining qiymati 0,01mm bo'lgan mikrometr; aylanuvchi markaz.

Tokarlik dastgohi bikrligini aniqlash amaliy usulda bajarilganligi uchun xavfsizlik choralarigiga qat'iy rioya qilish zarur. Mazkur amaliyot uch kulachokli patronli tokarlik dastgohida bajariladi.

Zagotovkani (po'lat chiviqni) dastgoh patroni ichiga o'rnatiladi hamda o'ng chetidan aylanuvchi markaz bilan biroz siqib qo'yiladi.



1-rasm. Zagotovkani o'rnatish sxemasi.

Radial tepishni bartaraf etish uchun zagotovka yuzasi yo'niladi hamda diametri o'lchanib, 1-jadvalga yoziladi ($D_{\text{dast}} \text{ to}'g'$ ri surishda). Dastgoh shpindelining aylanish chastotasini $n=500$ ayl/minga, surish qiymatini $S=0,2$ mm/ayl.ga sozlanadi. Dastgoh limbini $t=0,5-0,7$ mm kesish chuqurligiga moslanadi. Zagotovka keskich bilan to'g'ri surish yo'nalishida yo'nilsadi va zagotovka yuzasidan chiqqandan so'ng uni zagotovka yuzasidan tortib olmasdan turib, surish harakati va shpindelning aylanishi to'xtatiladi. Zagotovka diametri o'lchanadi va Dyak qiymati 1-jadvalga yozib qo'yiladi. Ushbu o'lcham teskari surish bilan yo'nishda dastlabki diametr hisoblanadi. Surish harakati teskarisiga sozlanadi. Dastgoh shpindelining aylanishi ishga tushuriladi. Keskichning vaziyatini o'zgartirmay turib (ko'ndalang yo'nalishda siljitmasdan), keskichning teskari surilishida zagotovka yo'nib o'tiladi. Dastgoh to'xtatilib, zagotovkaning D_{tesk} diametri o'lchanadi va qiymati 1-jadvalga kiritiladi.

1-jadval.

| O'tishlar | D _{dast} | D _{yak} | Ishlov rejimlari | berish |
|----------------|-------------------|------------------|----------------------------------|--------|
| To'g'ri surish | | | n, ayl/min S, mm/ayl t, mm | |
| Teskari surish | | | | |

Dastgoh uzellari bo'shashi Y_{dast}ning qiymati aniqlanadi:

$$Y_{dast} = (D_{to'g'} - D_{tesk})/2, \text{ mm.}$$

Ushbu formula bilan qirqish kuchi radial tuzuvchisining qiymati aniqlanadi:

$$P_y = C_P \times t^p \times S^p \times V^p \times K^p, \text{ kg,}$$

Bu yerda t-to'g'ri yurishdagi kesish chuqurligi.

$$t = (D_{to'g'} - D_{tesk})/2, \text{ mm.}$$

C_P = 125-tezkesar po'latdan ishlangan keskichlar bilan konstruksion po'latga ishlov berishda;

C_P = 243-qattiq qotishmadan tayyorlangan keskichlar bilan konstruksion po'latga ishlov berishda.

V-qirqish tezligi, mm/min.

X_P=0,9; Y_P=0,75 va 0,6 - konstruksion po'latga mos ravishda tezkesar po'lat va qattiq qotishmadan tayyorlangan keskichlar bilan ishlov berishda.

П_P=0 va -0,3 po'lat detallarni mos ravishda tezkesar po'lat va qattiq qotishmadan tayyorlangan keskichlar bilan ishlov berishda.

Qirqish kuchi radial tuzuvchisining qiymatiga ishlov beriladigan materialning va keskich geometriyasining ta'siri K_P koeffisient bilan hisobga olinadi.

45 rusumli po'lat uchun ($\sigma_B=55\text{kg/mm}^2$) oldingi burchagi $\gamma=12-15^\circ$, cho'qqisidagi radiusi $r=1 \text{ mm}$ li tezkesar po'latdan tayyorlangan keskichlar bilan ishlov berishda K_P=0,86ga teng.

45 rusumli po'latga ($\sigma_B=55\text{kg/mm}^2$) oldingi burchagi $\gamma=10^\circ$ li qattiq qotishmadan tayyorlangan keskichlar bilan ishlov berishda K_P=0,66ga teng.

Qirqish sharoitlarida yuqorida aytilganlardan boshqacha bo'lsa, K_P ning qiymati [2] mashinasoz-texnologning spravochnigidan olinsin.

Dastgohning bikrliji hisoblanadi:

$$\gamma_{dast} = P_y / Y_{dast},$$

Olingan natijani dastgohlarning tavsija etiladigan normal bikrliji bilan taqqoslanib, xulosaviy natijaga erishiladi.

Agar ma'lumotnomalarda dastgohning bikrliji o'rniga uning beriluvchanligi (podatlivost) berilgan bo'lsa, dastgohning beriluvchanligi orqali uning bikrligini aniqlash lozim:

$$\gamma_{dast} = I / \omega,$$



bu yerda ω-dastgohning beriluvchanligi, mm/mG.

Yuklanish ostidagi normal aniqlikdagi metal qirquvchi dastgohlarning aniqlik va bikrlik me'yorlari

1-jadval.

Tokarlik-vintqirqish dastgohlari parametrlari

| GOST 18097-88ga muvofiq tokarlik-vintqirqish dastgohlari | | | | | |
|---|--------------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-------|
| Ko'rsatkich | Ishlov diametri | beriladigan | yuzaning | eng | katta |
| | 125 | 200 | 320 | 400 | |
| Keskichtutqichning va opravkaning eng katta siljishi: | | | | | |
| -shpindel ichida o'rnatilgan | 50 | 100 | 160 | 200 | |
| -ketingi babka pinolida o'rnatilgan | 70 | 130 | 200 | 270 | |
| Kuch, nyuton | 980 | 1960 | 3920 | 5488 | |
| Vertikal parmalash, GOST 370-81E | Parmalashning eng katta diametri, mm | | | | |
| Ko'rsatkich | 10dan 12ga- cha | 12dan 20ga- cha | 20dan 25ga- cha | 25dan 40ga- cha | |
| Vertikal tekislikda shpindel o'qining dastgoh stoli yuzasiga perpendikulyarlikdan og'ishi (mkm) | 150 | 200 | 250 | 300 | |
| Shpindelning o'qidan siljishni o'lhash nuqtasigacha bo'lgan masofa, mm | 75 | 100 | 125 | 150 | |
| Kuch, nyuton | 2450 | 4410 | 7350 | 12250 | |

2-jadval.

Tokarlik dastgohlarining bikrligi

| Dastgoh markazlari balandligi, mm | 200 | 250 | 300 | 400 | 500 |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|
| Dastgohninh bikrligi γ_{dast} n/mm | 20000 | 25000 | 30000 | 40000 | 50000 |



| | | | | | |
|--|-------|-------|-------|-------|-------|
| Dastgohninh beriluvchanligi Ω_{dast} , mkm/N | 0,050 | 0,040 | 0,033 | 0,025 | 0,020 |
|--|-------|-------|-------|-------|-------|

Umumiy ahamiyatga ega tokarlik dastgohlarida ishlov beriladigan valni bikr markazlarga o‘rnatishda dastgohlarning beriluvchanligi

| Stanina ustidan eng katta ishlov berish diametri, mm | Dastgoh uzellarining beriluvchanligi, mkm/nyuton | | |
|--|--|-------------------|-------------|
| | Oldingi babkaning | Ketingi babkaning | Supportning |
| 100 | 0,0508 | 0,0794 | 0,0635 |
| 125 | 0,0445 | 0,0845 | 0,0555 |
| 160 | 0,0445 | 0,0823 | 0,0555 |
| 200 | 0,0445 | 0,0745 | 0,0555 |
| 250 | 0,0413 | 0,0627 | 0,0516 |
| 320 | 0,0378 | 0,0578 | 0,0472 |
| 400 | 0,0334 | 0,0549 | 0,0416 |
| 500 | 0,0312 | 0,0487 | 0,0388 |

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- [2]-Spravochnik texnologa-mashinostroitelya v 2 tomax. Tom 2, pod red. A.N.Malova. M., 1972.
- Texnik atamalarni davlat tiliga to‘g‘ri tarjima qilish muammolari. Sh.E.Tursunov, N.Q.Tursunov.

